UO‘K 94(575.1):347.97/.99(091)

ANDIJON UYEZDIDA QOZILAR FAOLIYATI VA UNING ME’YORIY-HUQUQIY ASOSLARI

(1876–1917-yillar)

K. Bazarov

Maqolada Rossiya imperiyasi davrida Andijon uyezdidagi qozilik sudlari faoliyati va qozi daftarlarining manbaviy imkoniyatlari tadqiq etilgan. Arxiv hujjatlari asosida akt va hukm daftarlarining tuzilishi, yuritilish tartibi hamda qozilar tarkibi aniqlangan. Natijalar ushbu hujjatlarda huquqiy amaliyot bilan birga hududning toponimik, etnografik, lingvistik va metrologik ma’lumotlari saqlanganini ko‘rsatadi. Qozi daftarlari Andijon uyezdining ijtimoiy tarixini yorituvchi muhim birlamchi manbalar hisoblanadi.

Kalit so‘zlar: *Andijon uyezdi, qozilik sudlari, qozi daftarlari, shariat huquqi, akt daftari, hukm daftari, Rossiya imperiyasi, tarixiy manba.*

В статье исследуются деятельность казийских судов Андижанского уезда в период Российской империи и источниковедческая ценность казийских книг. На основе архивных документов рассматриваются структура и порядок ведения книг актов и судебных решений, а также состав казиев. Установлено, что наряду со сведениями о правовой практике эти документы содержат топонимические, этнографические, лингвистические и метрологические данные, представляющие ценность для изучения социальной истории региона.

Ключевые слова: *Андижанский уезд, казийские суды, казийские книги, шариатское право, актовая книга, книга судебных решений, Российская империя, исторический источник.*

KIRISH

XIX asr ikkinchi yarmida Turkiston o‘lkasining Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinishi natijasida hududning ma’muriy va sud tizimi qayta tashkil etildi. Mustamlaka ma’muriyati imperiya sud muassasalarini joriy etish bilan birga mahalliy aholining shariat va odatga asoslangan sud amaliyotini ham ma’lum doirada saqlab qoldi. Qozilik sudlari kundalik turmush, mulkiy munosabatlar, nikoh, meros, qarz, savdo va boshqa xususiy-huquqiy masalalarni ko‘rib chiqishda davom etdi.

Mazkur siyosat bir tomondan boshqaruv xarajatlarini kamaytirish va mahalliy nizolarni an’anaviy institutlar vositasida hal qilish imkonini bergan bo‘lsa, ikkinchi tomondan qozilik sudlarini mustamlaka ma’muriy nazoratiga bo‘ysundirdi. Qozilarni saylash, ularning vakolatini tasdiqlash, ish yuritish shakli va sud qarorlarini qayd etish tartibi bir qator normativ hujjatlar bilan belgilandi. Shu tariqa an’anaviy qozixona amaliyotida maxsus akt va hukm daftarlarini muntazam yuritish tizimi shakllandi.

Andijon uyezdi qozilarining faoliyati va ular yuritgan daftarlar alohida ilmiy muammo sifatida yetarli darajada kompleks o‘rganilmagan. Mavjud tadqiqotlarda Turkistondagi sud islohotlari hamda qozilik sudlarining huquqiy asoslari yoritilgan bo‘lsa-da, Andijon uyezdiga tegishli daftarlarning tashqi belgilari, tarkibi, fondlar bo‘yicha joylashuvi va manbaviy imkoniyatlari tizimli ravishda umumlashtirilmagan.

Qozi daftarlarini o‘rganishda manbaga tanqidiy yondashish alohida ahamiyatga ega. N.M.Xudoyorov va S.S.Ro‘ziboyevlar ta’kidlaganidek, “zamonaviy tarixshunoslikda obyektivlikdan ko‘ra tanqidiy tafakkur, izchillik va metodologik asoslanganlik muhim ahamiyat kasb etadi” [1. B. 450]. Mazkur metodologik qoida qozi daftarlaridagi huquqiy formulalar, shaxsiy qaydlar va mustamlaka idoralari belgilari o‘rtasidagi munosabatni xolis baholash imkonini beradi.

Maqolaning maqsadi 1876–1917-yillarda Andijon uyezdida faoliyat yuritgan qozilar va ular tomonidan tuzilgan akt hamda hukm daftarlarini manbashunoslik nuqtayi nazaridan tahlil qilishdir. Tadqiqotning ilmiy yangiligi O‘zbekiston Milliy arxivi fondlaridagi

qozi daftarlarini hududiy mansubligi, turi, xronologiyasi va axborot imkoniyatlari bo‘yicha tizimlashtirish, shuningdek, ayrim qozilar tarkibini aniqlashtirishdan iborat.

MATERIAL VA USULLAR

Tadqiqotning asosiy manba bazasini O‘zbekiston Milliy arxivida saqlanayotgan Andijon shahri dahalari va uyezd volostlari qozilariga tegishli hujjatlar tashkil etadi. Jumladan, ushbu arxivning I-414, I-415, I-417–I-439, I-495-fondlaridagi akt va hukm daftarlari, shuningdek, I-365 va I-19-fondlarning ayrim yig‘majildlari ushbu muammo bo‘yicha muhim manbalar sanaladi. Mazkur manbalar tahlil qilinib, qo‘lyozmalardagi eski o‘zbek yozuvidagi matnlar, muhrlar, rus tilidagi muqova qaydlari va idoraviy belgilar o‘zaro qiyoslandi.

Normativ-huquqiy asos sifatida 1867-yilgi Muvaqqat nizom va 1886-yil 12-iyundagi “Turkiston o‘lkasini boshqarish to‘g‘risidagi nizom”dan foydalanildi [2]. Nashr etilgan manbalar va ilmiy tadqiqotlardan Muhammad Aziz Marg‘iloniy [3], S.Jalilov [4], G.A.Hidoyatov va V.A.Kostetskiy [5], R.Shamsutdinov, B.Matboboyev, S.Hoshimov, Q.Bozorov va A.Is’hoqov asarlari [6, 7] jalb qilindi.

Tadqiqotda tarixiylik va obyektivlik tamoyillari, tizimlashtirish, tarixiy-qiyosiy tahlil hamda tarixiy manbalarni tahlil qilish usullaridan foydalanildi. Tashqi tanqid yordamida qozi daftarlarining muqovasi, qog‘ozi, yozuvi, muhri va xronologik qaydlari tavsiflandi. Ichki tanqid orqali hujjatlardagi huquqiy formulalar, shaxs va joy nomlari, o‘lchov hamda pul birliklarining axborot qiymati baholandi. Miqdoriy ma’lumotlar fondlar va yig‘majildlar kesimida umumlashtirildi.

NATIJALAR

1876-yilda Qo‘qon xonligi Rossiya imperiyasi mustamlakachilari tomonidan tugatilgach, markazi Yangi Marg‘ilon bo‘lgan Farg‘ona viloyati tuzildi. Viloyat Qo‘qon, Marg‘ilon, Andijon, Namangan va O‘sh uyezdlariga bo‘lindi. Andijon uyezdi ham shu yili tashkil topdi. 1890-yilda tuzilgan xarita ma’lumotlariga ko‘ra, Andijon uyezdi Baliqchi, Norin, Xaqqulobod, Izboskan, Oltinko‘l, Xokan, Yorboshi, Maygir, Novqat, Qo‘qonqishloq, Bozorqo‘rg’on, Oyim, Qo‘rg’ontepa, Qorasuv, Ko‘gart, Jalaquduq, Chankent, Jalolobod, Maylisoy, Massi, Kenko‘l-Qoragir va Qorako‘l-Sersuy kabi volostlarni qamrab olgan. Andijon shahri esa Soy, Uyluq, Olaylik va Qirlik qismlari (daha)ga bo‘lingan [6. B. 23–24; 8. B. 156].

Mustamlakachi hukumat tub joy aholining an’anaviy sudlov tizimini ma’lum darajada saqlab qolgan holda, o‘troq aholi uchun qozilik sudlarini, ko‘chmanchi-chorvador xalqlar uchun esa biylik sudlarini joriy qildi. 1867-yilgi nizom loyihasiga muvofiq qozilar va biylar uch yil muddatga saylangan [2. B. 42]. Qozilik sudlarida ko‘rilgan ishlarni muntazam qayd etish uchun maxsus daftarlar yuritildi. Arxiv materiallari Andijon uyezdida ikki asosiy turdagi daftar mavjud bo‘lganini ko‘rsatadi: dalolatnoma va bitimlarni qayd etuvchi “akt daftari” hamda ko‘rilgan ishlar yuzasidan shariat qoidalariga asoslangan qarorlar yozilgan “hukm daftari” (“Книга для решений”).

Akt daftarlarining muqovasida eski o‘zbek yozuvida daftar turi, joy va yuritilgan vaqt ko‘rsatilgan, uning ustiga yoki yoniga rus tilida idoraviy nom yozilgan. Masalan, ayrim muqovalarda “Книга для записи актов Хакентской волости Андижанского уезда Ферганской области. 1903 г.” shaklidagi qayd uchraydi [9. B. 11]. Varaqlar odatda ip bilan muqovalangan, matnlar eski o‘zbek yozuvida (arab imlosida) qo‘lyozma shaklida bitilgan. Hujjatlardagi muhrlarning siyohi va shakli davrga qarab farqlangan; ayrimlarida “Народный судья Андижанского уезда” hamda volost nomi aks etgan.

Hukm daftarlarida da’vo mazmuni, taraflar, guvohlar, qozi chiqargan qarorlar, muhr va ayrim hollarda ijroga oid qaydlar berilgan. Daftarlarning qog‘oz sifati, xat turi va yozuv usuli bir xil emas. Ayrim kotiblar ishlatgan qisqartmalar va shaxsiy belgilar matnni o‘qish hamda tarjima qilishni murakkablashtiradi. Shunga qaramay, mazkur belgilar daftarni tuzgan muhit va qozixona ish yuritish amaliyotini aniqlash uchun muhim paleografik dalil hisoblanadi.

Quyidagi jadvallarda O‘zbekiston Milliy arxivida saqlanayotgan Andijon shahri dahalari hamda volostlari bo‘yicha mavjud qozilik hujjatlari mazmuni va davri haqida ma’lumot keltirilgan.

1-jadval

Andijon shahri dahalari bo‘yicha qozi daftarlarining saqlanishi

Daha	Fond	Yig‘majildlar soni	Xronologik chegara
Soy dahasi	I-414	25	1903–1920
Uyluq dahasi	I-415	Aniqlashtirilmagan	–
Olaylik dahasi	I-419	36	1903–1918
Qirlik dahasi	I-431	36	1889–1917

Aniqlangan ma’lumotlarga ko‘ra, Soy, Olaylik va Qirlik dahalari bo‘yicha jami 97 ta yig‘majild mavjud. Ularning har biri o‘rtacha 30–170 varaqdan iborat. Uyluq dahasi fondidagi yig‘majildlar soni va xronologik chegarasi fond tavsifi asosida qo‘shimcha aniqlashtirilishi lozim.

2-jadval

Andijon uyezdi volostlari bo‘yicha qozi daftarlarining saqlanishi

Volost	Fond	Yig‘majildlar soni	Xronologik chegara
Oyim	I-417	25	1902–1917
Oltinko‘l	I-418	20	1902–1915
Baliqchi	I-420	35	1902–1917
Bozorqo‘rg‘on	I-421	20	1904–1915
Jalolobod	I-422	18	1908–1917
Jalaquduq	I-423	19	1903–1917
Kenko‘l-Qoragir	I-425	29	1902–1917
Qorasuv	I-426	18	1903–1917
Qorako‘l-Sersuy	I-427	10	1908–1916
Qo‘rg‘on	I-428	41	1903–1915
Qo‘rg‘ontepa	I-429	23	1902–1916
Kurshob	I-430	1	1913
Maylisoy–Izboskan	I-432	36	1889–1917
Massi	I-433	4	1911–1915
Maygir	I-434	Aniqlashtirilmagan	—
Novqat	I-435	10	1913–1914
Norin	I-436	39	Aniqlashtirilmagan
Xokan	I-437	21	1903–1918
Haqqulobod	I-438	38	1903–1918
Yorboshi	I-439	25	1891–1918
Chankent, 4-ovul	I-495	3	1910–1912

I-414, I-415, I-419, I-431 va I-437-fondlardagi ayrim materiallar Andijon uyezdi qozilarining hukm daftarlaridan iborat. Ularda sud qarorlari, ijroga oid qaydlar hamda qozilarning ism-shariflari uchraydi [10, 11, 12, 13, 14]. Hujjatlar asosida Oltinko‘l volostida Mulla Usmon Umarboyev, Baliqchida Said Sharofiddin To‘ra Buzruk Xonto‘rayev, Xokanda Mirzaxon Zokir Xonqoriyev, Yorboshida Ahmad Xushquvvatov, Qo‘qonqishloqda Mulla Yoqubjon Taylaqboyev, Maygirda Mulla Hotam Mirzaso‘piyev faoliyat olib borgani aniqlandi.

Izboskanda Mulla Otaxon Aliboyev, Qorasuvda Mulla To‘raxon Kichikxon To‘rayev, Oyimda Mulla Fahriddin Nuriddinov, Qo‘rg‘ontepada Mulla Bolta Noraliyev va Jalaquduqda Mulla Orifxo‘ja Xonxo‘jayev xalq qozisi sifatida qayd etilgan. Ismlar yonidagi qishloq yoki mahalla ko‘rsatkichlari qozilarning hududiy mansubligi va mahalliy ijtimoiy tayanchini o‘rganishga imkon beradi.

MUHOKAMA

Rossiya imperiyasi Turkistonda qozilik sudlarini batamom tugatish yo‘lini tutmay, aksincha, ularni nazorat ostida saqlash yo‘lini tanladi. Bu amaliyot mahalliy huquqiy an’analar davomiyligini ta’minlagan bo‘lsa-da, qozilarni saylash va tasdiqlash, vakolat chegaralari hamda ish yuritish shakllari orqali mustamlaka boshqaruvi manfaatlariga moslashtirildi. Qozilik sudlari birinchi bosqich mahalliy sud vazifasini

bajardi; yirikroq yoki murakkab ishlar qozilar va biylar qurultoylarida ko‘rib chiqilar edi [5. B. 48].

Qozi daftarlarining qiymati faqat sud tarixiga oid ma’lumotlar bilan cheklanmaydi. Akt va hukm yozuvlarida yer oldi-sotdisi, ijara, qarz, meros, hadya, nikoh va oilaviy munosabatlar aks etgan. Taraflar, guvohlar, mahalla va qishloqlar, ariq va anhorlar, yer maydonlari, pul hamda o‘lchov birliklarining qayd etilishi ushbu hujjatlarni ijtimoiy tarix, tarixiy geografiya, toponimika, antroponimika, etnografiya, til tarixi va metrologiya kabi yordamchi tarmoqlar uchun ko‘p qatlamli manbaga aylantiradi.

Fondlar kesimidagi tahlil hujjatlarning saqlanish darajasi bir xil emasligini ko‘rsatadi. Ayrim dahalar va volostlarda uzoq yillarni qamrab oluvchi o‘nlab yig‘majildlar mavjud bo‘lsa, boshqa hududlar bo‘yicha atigi bir necha daftar saqlangan yoki tavsif ma’lumotlari to‘liq emas. Shu sababli saqlangan yig‘majildlar sonini qozixona faoliyatining haqiqiy ko‘lami bilan aynan tenglashtirish mumkin emas. Manbaviy bo‘shliqlarni fond ro‘yxatlari, boshqa ma’muriy idoralar hujjatlari va davriy matbuot materiallari bilan qiyoslash talab etiladi.

Daftarlardagi eski o‘zbek yozuvi, shariat-huquqiy terminlari va individual xat uslublari ularni o‘rganishda paleografiya, diplomatika va fiqh tarixiga oid bilimlarni birlashtirishni talab qiladi. Tarjima jarayonida hujjat shakli, atamalar va o‘lchov birliklarini zamonaviylashtirib yubormaslik, asl matn transkripsiyasi bilan ilmiy izohni ajratish muhimdir. Raqamli tavsif, faksimile, transliteratsiya va izohli tarjimaning birgalikda nashr etilishi bu borada kelgusidagi tadqiqotlarning ishonchliligini oshiradi.

XULOSA

Tadqiqot Andijon uyezdida qozilik sudlari mustamlaka boshqaruvi sharoitida qayta tartibga solingan holda faoliyat yuritganini ko‘rsatadi. Qozixonalarda akt va hukm daftarlarining muntazam yuritilishi sud amaliyotini qayd etish bilan birga, XIX asr oxiri – XX asr boshlaridagi mahalliy jamiyatning kundalik hayotiga oid keng ma’lumotlar majmuasini shakllantirgan.

O‘zbekiston Milliy arxividagi fondlarni tizimlashtirish natijasida Andijon shahri dahalari hamda uyezdning 21 volostiga tegishli qozi daftarlarining fond raqamlari, ayrim hollarda yig‘majildlar soni va xronologik chegaralari umumlashtirildi. Hujjatlarda qayd etilgan qozilar tarkibi, joy nomlari, mulkiy munosabatlar, pul va o‘lchov birliklari ushbu majmuaning manbaviy ko‘lamini tasdiqlaydi.

Qozi daftarlarini to‘liq kataloglashtirish, raqamlashtirish, transliteratsiya va izohli tarjima qilish Andijon viloyati, umuman Farg‘ona vodiysining huquqiy, ijtimoiy va iqtisodiy tarixini yangi dalillar bilan boyitadi. Bu mavzu bo‘yicha keyingi tadqiqotlarda alohida volostlar bo‘yicha hujjatlarning saqlanish holati, sud ishlarining turlari va qozilar ijtimoiy tarkibini miqdoriy hamda qiyosiy tahlil qilish maqsadga muvofiq.

Adabiyotlar:

1. *Xudoyorov N.M., Ro‘ziboyev S.S*. Tarixiy bilimda haqqoniylik va obyektivlik muammosi // Konferensiya NUUz. – 2025. – T. 1. – № 1. – B. 447–450.

2. Положение об управлении Туркестанского края от 12 июня 1886 г. // Свод законов Российской империи. – Т. II.

3. *Муҳаммад Азиз Марғилоний*. Тарихи Азизий: (Фарғона чор мустамлакаси даврида) / Сўзбоши ва изоҳлар муаллифлари: Ш.Воҳидов, Д.Сангирова. – Тошкент: Маънавият, 1999. – 112 b.

4. *Jalilov S*. Vatanimiz tarixini varaqlab: tarixchining o‘ylari. – Andijon: Andijon nashriyot-matbaa OAJ, 2004. – 160 b.

5. *Хидоятов Г.А., Костецкий В.А*. История Узбекистана (вторая половина XIX – начало XX вв.). – Ташкент: Узбекистан, 2006. – 160 с.

6. История Андижана: в документах и материалах (1876–1917 гг.). Т. 1 / отв. ред. Р.Шамсутдинов, Б. Матбабаев, С.Хошимов, К.Базаров. – Тошкент: Шарқ, 2012. – 512 с.

7. Шамсутдинов Р.Т., Исҳоқов А.А. Андижон тарихидан лавҳалар. – Тошкент: Шарқ, 2013. – 592 б.

8. Путеводитель. Центральный Государственный Исторический Архив Узбекистана (ЦГА РУз.). / Сост.: З.И.Агафонова, Н.А.Халфин. – Ташкент, 1948. – 181 с.

9. O‘zbekiston Milliy arxivi (O‘zMA) I-437-fond, 1-ro‘yxat, 3-yig‘majild.

10. O‘zMA, I-414-fond, 1-ro‘yxat, 25-yig‘majild.

11. O‘zMA, I-437-fond, 1-ro‘yxat, 3-yig‘majild.

12. O‘zMA, I-437-fond, 1-ro‘yxat, 10-yig‘majild, 36-varaq.

13. O‘zMA, I-419-fond, 1-ro‘yxat, 36-yig‘majild.

14. O‘zMA, I-415-fond, 1-ro‘yxat, 7-yig‘majild.

ACTIVITIES OF KAZIS IN THE ANDIJAN UYEZD AND THEIR NORMATIVE AND LEGAL FOUNDATIONS (1876–1917)

Bazarov Kasimjon[1]

Ilmiy xabarnoma. Seriya: Gumanitar tadqiqotlar – Scientific Bulletin. Series: Humanitarian Studies. 2026. 5(97). 18-23.

[1]Andijan State Pedagogical Institute, Andijan, 170100, str. Dustlik, 4th house, (Uzbekistan). E-mail: adpi@edu.uz

Key words: Andijan Uyezd, qadi courts, qadi registers, Islamic law, act register, judgment register, Russian Empire, historical source.

The article is examined qadi courts in Andijan Uyezd between 1876 and 1917 and evaluates their registers as sources for the legal and social history of the Fergana Valley. Its purpose is to determine how the registers were compiled, what information they preserved, and how their contents can be used beyond court history. The study also systematizes the archival distribution of registers belonging to Andijan's four urban quarters and the volosts of the uyezd.

The source base consists of act and judgment registers preserved in the National Archive of Uzbekistan. The 1867 provisional regulations and the Regulations on the Administration of the Turkestan Region of 1886 provide the legal context, while published collections and historical studies are used for comparison. The research combines historicism and objectivity with source criticism, historical-comparative analysis, classification, and description. External criticism is applied to paper, handwriting, seals, dates, and administrative notes; internal criticism evaluates legal formulas, names, places, measurements, and monetary terms.

The analysis identifies two principal record types. Act registers recorded transactions, agreements, and attestations; judgment registers contained decisions based on Islamic legal norms, qadi seals, and sometimes notes on enforcement. The texts were handwritten in Arabic-script Uzbek and commonly bound with thread. Covers often combined an Uzbek note identifying the locality and year with a Russian administrative title. Surviving records are unevenly distributed: substantial groups remain for the Soy, Olaylik, and Qirlik quarters and several volosts, whereas other localities have only a few files or incomplete descriptions.

The registers identify qadis serving in Oltinko'l, Baliqchi, Xokan, Yorboshi, Qo'qonqishloq, Maygir, Izboskan, Qorasuv, Oyim, Qo'rg'ontepa, Jalaquduq, and other volosts. They document land sales, leases, debts, inheritance, gifts, marriage, family relations, witnesses, settlements, canals, money, and measurements. Their value thus extends to historical geography, toponymy, anthroponymy, ethnography, linguistic history, metrology, and everyday life. The evidence also shows that colonial rule retained qadi courts but reorganized them through rules governing election, jurisdiction, and recordkeeping.

The study concludes that qadi registers are multilayered sources for the history of Andijan. The number surviving cannot directly measure the original scale of judicial activity because preservation varies by locality and period. Interpretation requires comparison with inventories, administrative records, periodicals, and related sources. Future work should include cataloguing, digitization, diplomatic transcription, transliteration, and annotated translation. This would support comparisons of disputes, changes in legal practice, local social networks, and the role of qadis in the transformation of Fergana Valley society under Russian imperial rule.

References:

1. Xudoyorov, N.M., Ruziboyev, S.S. (2025). Tarixiy bilimda haqqoniylik va obyektivlik muammosi [The Problem of Reliability and Objectivity in Historical Knowledge]. Konferensiya NUUz. 1(1). Pp. 447-450.

2. (1886). Polozhenie ob upravlenii Turkestanskogo kraya ot 12 iyunya 1886 g. // Svod zakonov Rossijskoj imperii [Regulations on the Administration of the Turkestan Region, 12 June 1886]. Svod zakonov Rossiyskoy imperii. Vol. II.

3. Muhammad Aziz Marg‘iloniy. (1999). Tarixi Aziziy [The History of Azizi]. Tashkent: Ma’naviyat.
4. Jalilov, S. (2004). Vatanimiz tarixini varaqlab (tarixchining o‘ylari) [Turning the Pages of the History of Our Homeland]. Andijan: Andijon nashriyot-matbaa.
5. Hidoyatov, G.A., Kosteckij, V.A. (2006). Istoriya Uzbekistana (vtoraya polovina XIX – nachalo XX vv.) [History of Uzbekistan (second half of the 19th – early 20th centuries)]. Tashkent: Uzbekistan.
6. Shamsutdinov, R.T. (ed.). (2012). Istoriya Andijana: v dokumentah i materialah (1876-1917 gg.). [History of Andijan in Documents and Materials, 1876–1917]. Vol.1. Tashkent: Shark.
7. Shamsutdinov, R.T., Ishoqov, A.A. (2013). Andijon tarixidan lavhalar [Episodes from the History of Andijan]. Tashkent: Shark.
8. Agafonova, Z.I., Khalfin, N.A. (Comps.). (1948). Putevoditel’. Central’nyj Gosudarstvennyj Istoricheskij Arhiv Uzbekistana (CGA RUz.). [Guide to the Central State Historical Archive of the Uzbekistan (TsGA RUz.)]. Tashkent
9. O‘zbekiston Milliy arxivi (O‘zMA) [National Archive of Uzbekistan. NA of Uz]. Fund I-437, List 1, File 3.
10. NA of Uz. Fund I-414, List 1, File 25.
11. NA of Uz. Fund I-437, List 1, File 3.
12. NA of Uz. Fund I-437, List 1, File 10.
13. NA of Uz. Fund I-419, List 1, File 36.
14. NA of Uz. Fund I-415, List 1, File 7.

Muallif haqida ma’lumot:
BAZAROV KASIMJON – Andijon davlat pedagogika instituti Tarix kafedrasi dotsenti. E-mail: qosimjonbazarov241@gmail.com